
**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH TA’LIM FAKULTETI**

BOSHLANG‘ICH TA’LIM KAFEDRASI

**“BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA XXI ASR KO‘NIKMALARINI
RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI: 5 E MODEL, YANGI
AVLOD DARSliklari VA XORIJIY tajribalar”**

**RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMAN
MATERIALLARI**

2025-yil, 21-noyabr

Ilmiy-amaliy anjumanning dasturiy qo‘mitasi

B.B. Ma‘murov	–	Buxoro davlat pedagogika instituti rektori, rais;
Z.M. Muqimov	–	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, rais muovini;
G.R. Akramova	–	Ilmiy – tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i, a‘zo;
M.M. Tilavova	–	Maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim fakulteti dekani, a‘zo;
R.A.Qo‘ldoshev	–	Ta‘lim sifatini nazorat qilish bo‘limi boshlig‘i, a‘zo;
M.J. Saidova	–	Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası mudiri, a‘zo;
F.M.Qosimov	–	Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası professori, a‘zo;
Y.Y.Azimov	–	Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası professori, a‘zo;
N.O.Safarova	–	Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası professori, a‘zo;
N.B. Adizova	–	Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası dotsenti, a‘zo;
N.B. Adizova	–	Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası dotsenti, a‘zo;
G.E.Saidova	–	Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası dotsenti, a‘zo;
R.X.Jumayev	–	Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası dotsenti, a‘zo;
F.N. Abdullayeva	–	Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası dotsenti, a‘zo;
S.R.Akramova	–	Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası dotsenti, a‘zo;
M.N. O‘rinova	–	Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası dotsenti, a‘zo;

Ilmiy-amaliy anjumanning tashkiliy qo‘mitasi

Z.M. Muqimov	–	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, rais;
G.R. Akramova	–	Ilmiy – tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i, rais muovini;
J.S.Aminov	–	Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor, a‘zo;
M.M. Tilavova	–	Maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim fakulteti dekani, a‘zo;
R.A.Qo‘ldoshev	–	Ta‘lim sifatini nazorat qilish bo‘limi boshlig‘i, a‘zo;
M.J. Saidova	–	Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası mudiri, a‘zo;
F.M.Qosimov	–	Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası professori, a‘zo;
Y.Y.Azimov	–	Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası professori, a‘zo;
F.S.Safarov	–	Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası dotsenti, a‘zo;
S.R.Akramova	–	Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası dotsenti, a‘zo;
N.B. Adizova	–	Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası dotsenti, a‘zo;
R.X.Jumayev	–	Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası dotsenti, a‘zo;
I.D.Axrorov	–	Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası katta o‘qituvchisi, a‘zo;
B.N.Yuldashev	–	Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası katta o‘qituvchisi, a‘zo;
D.N.Xayrullayeva	–	Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası katta o‘qituvchisi, a‘zo;
Z.I.Usmonova	–	Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası o‘qituvchisi, a‘zo;
N.O‘.Xudoyberdiyeva	–	Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası o‘qituvchisi, a‘zo.

To‘plam Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda 490-sonli buyrug‘iga asosan 2025-yilning 21-noyabr kunda **“Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantirishning zamonaviy texnologiyalari: 5 E modeli, yangi avlod darsliklari va xorijiy tajribalar”** mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari asosida tuzildi.

Mas‘ul muharrir:

M.J. Saidova - pedagogika fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

B.R. Adizov - pedagogika fanlari doktori, professor

G.V. Izbullayeva- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

- Amaliy tajriba orqali bilimni chuqurroq o'zlashtirishni ta'minlaydi;- Innovatsion fikrlash va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi;

- Qiz bolalar o'rtasida texnik va muhandislik yo'nalishlariga qiziqishni oshiradi;

- O'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantiradi.

O'zbekiston ta'lim tizimida STEAM tajribasi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda STEAM yo'nalishidagi o'quv markazlari, laboratoriyalar va to'garaklar faoliyati kengaymoqda. Xususan, "Innovatsion rivojlanish vazirligi" tashabbusi bilan 2021-yildan boshlab STEAM ta'limini rivojlantirish bo'yicha maxsus dastur ishlab chiqildi. Maktab va kollejlarda negizida "STEAM laboratoriyalari" tashkil etilmoqda, o'qituvchilar uchun treninglar o'tkazilmoqda.

Bundan tashqari, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, TATU filiallari hamda bir qator oliy ta'lim muassasalari o'quv dasturlariga STEAM modullarini kiritmoqda. O'quvchilar robototexnika, dasturlash, 3D-modellashtirish, sun'iy intellekt kabi yo'nalishlarda amaliy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lmoqda.

STEAM ta'limi bugungi globallashuv sharoitida o'quvchilarning raqobatbardoshligini oshirish, ularni kelajak kasblariga tayyorlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Ushbu yondashuv o'quvchilarda nafaqat fanga qiziqish, balki ijodkorlik, muloqot, tanqidiy fikrlash va jamoaviy ish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

O'zbekiston ta'lim tizimida STEAM konsepsiyasini kengroq joriy etish uchun quyidagilar muhim:

- o'qituvchilarni zamonaviy STEAM metodikalariga tayyorlash;

- o'quv dasturlarini integratsiyalashgan shaklga keltirish;

- maktablarda texnik jihozlar va STEAM laboratoriyalarini kengaytirish;

- xalqaro tajriba asosida STEAM loyihalarini milliy sharoitga moslashtirish.

Demak, STEAM ta'limi nafaqat zamonaviy bilim olish, balki yosh avlodni innovatsion fikrlovchi, tashabbuskor va texnologik tafakkurga ega mutaxassis sifatida shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim tizimida STEAM ta'limini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. — 2021.

2. Yakman G. (2008). "STEAM Education: An Overview of Creating a Model of Integrative Education."

3. Bybee R. W. (2013). The Case for STEM Education: Challenges and Opportunities. NSTA Press.

4. Qodirova M., To'laganova D. (2023). "STEAM texnologiyalarini umumta'lim maktablarida joriy etish tajribasi." – Ta'lim va innovatsiya jurnali, №2.

AKSIOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHILARINING HARA-KAT FAOLLIGINI OSHIRISH METODIKASI

Hafizov Shahriyor Shavkatovich
Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada jismoniy tarbiya o'qituvchilarining harakat faolligini oshirishda aksiologik yondashuvning ilmiy-nazariy asoslari tahlil qilingan. Aksiologik yondashuv orqali o'qituvchining kasbiy faoliyatida sog'lom turmush tarzi, shaxsiy qadriyatlar va jismoniy madaniyatning integratsiyasi yoritilgan. Shu asosda harakat faolligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish yo'llari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: aksiologik yondashuv, harakat faolligi, jismoniy tarbiya, pedagogik texnologiya, sog'lom turmush tarzi, qadriyatlar tizimi.

Bugungi kunda ta'lim tizimida jismoniy tarbiya o'qituvchisining faoliyati faqat dars o'tish bilan cheklanmay, balki talabalar o'rtasida sog'lom hayot tarzini shakllantirishi muhim omilga aylanmoqda.

Bu jarayonda aksiologik yondashuv — ya'ni qadriyatlar orqali ta'lim va tarbiyani yo'lga qo'yish usuli — katta ahamiyat kasb etadi. Jismoniy tarbiya o'qituvchisining harakat faolligi uning shaxsiy jismoniy tayyorgarligi, motivatsiyasi va kasbiy qadriyatlar tizimiga bog'liq bo'lib, buni metodik jihatdan qo'llab-quvvatlash zamonaviy pedagogikaning dolzarb vazifalaridan biridir.

Aksiologiya — qadriyatlar haqidagi ta'limot bo'lib, inson faoliyatini ma'naviy-ma'rifiy jihatdan boyitishga qaratilgan. Ta'lim jarayonida aksiologik yondashuv shaxsning hayotiy pozitsiyasi, ichki motivatsiyasi va kasbiy faoliyatini qiymatlar tizimi orqali shakllantirishga xizmat qiladi.

Jismoniy tarbiya o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlash bilimlarni puxta egallash va o'qitishning yangi usullari, amaliy ko'nikmalarini o'zlashtirish bilan birga axloqiy sezgirlikni, hissiy aqlni va yaxshi rivojlangan qadriyatlar tizimini rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

O'qitishning bu insoniy jihatlari ko'p jihatdan aksiologiya, qadriyatlarni falsafiy o'rganish bilan shakllanadi. Aksiologik tayyorgarlik muhim ahamiyatga ega, chunki u bo'lajak o'qituvchilarga o'zlarining axloqiy majburiyatlari, madaniy merosi va ijtimoiy mas'uliyatini chuqur anglashda yordam beradi.

Aksiologik elementlarni o'qituvchilar ta'limiga kiritish nafaqat to'ldiruvchi, balki qobiliyatli va empatik o'qituvchilarni tarbiyalash uchun ham hal qiluvchi ahamiyatga ega. Respublikamizda oliy ta'lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish borasida qator ishlar qilinmoqda.

Negaki bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisi o'z sohasida yetarli bilimlarga ega bo'lib, axloqiy jihatdan o'rnak ko'rsata oladigan, pedagogik mahorati shakllangan bo'lishi lozim. Bu esa o'z navbatida, pedagogik aksiologiya orqali, ya'ni qadriyatlarni falsafiy o'rganish bilan shakllanadi.

Shu sababli pedagogika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarida talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonida milliy qadriyatlarga asoslangan ta'lim tizimi, ta'lim va uning ishtirokchilariga qadriyat sifatida qarash muhim sanaladi. Biz, dastlab, "aksiologiya", aksiologik ong", "aksiologik yondashuv", "pedagogik faoliyat" tushunchalarining mazmunmohiyatini aniqlashtirib, so'ngra "pedagogik faoliyatga aksiologik yondashuv" iborasiga ta'rif bersak, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Aksiologiya falsafaning mustaqil sohalaridan biridir. Mazkur tushuncha turli adabiyotlarda turlicha talqin etiladi. Aksiologiya yunoncha so'z bo'lib, axio - qadriyat, logos - ta'limot, so'z, ya'ni qadriyatlar haqidagi ta'limot ma'nosini bildiradi. I.T.Frolova tahriri ostidagi falsafiy lug'at (1986)da aksiologiyaga qadriyatlar tabiatini falsafiy jihatdan tadqiq etish, deb ta'rif beriladi.

Aksiologiya G'arb falsafasida XIX asr oxiri - XX asrning boshlarida umumiy "qadriyatlar muammosining ba'zi murakkab masalalarini hal etishga urinish" sifatida yuzaga keldi.

Aksiologik tayyorgarlik muhim ahamiyatga ega, chunki u bo'lajak o'qituvchilarga o'zlarining axloqiy majburiyatlari, madaniy merosi va ijtimoiy mas'uliyatini chuqur anglashda yordam beradi.

Bugungi kunda bo'lajak jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda aksiologik yondashuv asosiy metodologik tamoyillardan biridir, chunki aksiologik yondashuvning metodologik tamoyillari asosida mutaxassislar tayyorlash bo'lajak jismoniy tarbiya pedagoglarining o'z ta'limiga ham, kasbiy rivojlanishiga ham ongli munosabatini shakllantirishga yordam beradi.

Pedagogik nuqtai nazardan qadriyatlarning falsafiy asoslariga e'tibor qaratish professor-o'qituvchi va talabalarning qadriyatli munosabatiga asoslanadigan pedagogik ta'lim mazmuni va tuzilmasini ham qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi.

Bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlash bilan bog'liq aksiologik yondashuvning mohiyati talabalarda olamga, o'zining faoliyati, kasb egasi sifatida o'z-o'ziga

munosabatni aniqlashga xizmat qiladigan umuminsoniy va kasbiy qadriyatlar tizimini rivojlantirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Pedagogik aksiologiya bo'lajak pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirish uchun muhim asos vazifasini bajaradi. Pedagogik adabiyotlarda aksiologiya qadriyatlar nazariyasi sifatida talqin qilinadi va umuminsoniy qadriyatlarga diqqat qaratish bilan tavsiflanadi.

Ma'lumki, aksiologiyada borliqning ijtimoiy-madaniy ahamiyatini tavsiflashga xizmat qiladigan "qadriyat" tushunchasi markaziy o'rin tutadi. Qadriyat, qisqa qilib aytganda, jamiyat yoki inson uchun ahamiyatli va foydali hisoblangan aniq predmetlar yoki ideallardir.

Shu sababli ta'limda milliy qadriyatlarimiz, xalqimizning boy ma'naviy merosidan foydalangan holda hamda ta'limga qadriyat sifatida qaralsagina, mamlakatimiz ta'lim tizimida o'zgarishlar qilish va barkamol kelajak avlodni tarbiyalashi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ahmedova, U. Y. Q., & Axmedova, M. U. B. Q. (2021). Vatanim Surati. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(11), 877-883.

2. Axmedova, U. (2022). On Certain Conditions Of Striking Coefficients Of Fourier Series To Zero. *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, 3(3), 3-8.

3. Шавкатович, Ҳафизов Шаҳриёр. "ЎЗБЕК ХАЛҚ ЎЙИНЛАРИНИНГ ПАЙДО БЎЛИШ ТАРИХИ." *E Conference Zone*. 2023.

4. Shavkatovich, Hafizov Shahriyor. "O 'ZBEK XALQ O 'YINLARINING O 'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI." *PEDAGOGS jurnali* 1.1 (2023): 434-434.

5. Shavkatovich, Hafizov Shahryar. "THE ROLE OF AXIOLOGICAL EDUCATION IN THE DEVELOPMENT OF THE PREPARATION OF STUDENTS FOR SOCIAL-PEDAGOGICAL ACTIVITY." *International Journal of Advance Scientific Research* 3.12 (2023): 407-410.

6. Shavkatovich, Hafizov Shahryar. "STUDY OF THE FORMATION OF CIVIL CULTURE OF FUTURE PHYSICAL EDUCATION TEACHERS BASED ON THE AXIOLOGICAL APPROACH IN PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL SOURCES." *International Scientific and Current Research Conferences*. 2024.

STEAM ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINFLARDA INTERAKTIV VA TAJRIBAVIY O'QITISH USULLARI VA UNI AMALIYOTDA QO'LLASH

Raxmatova Shaxnoza Olimovna

Buxoro Pedagogika instituti 1 -kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) ta'lim metodikasi asosida boshlang'ich sinflarda interaktiv va tajribaviy o'qitish usullaridan foydalanish masalasi yoritiladi. STEAM ta'limi o'quvchilarning qiziqishini oshirib, ularning ilmiy va ijodiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi. Maqolada loyihaviy ta'lim, eksperiment asosida o'qitish, robototexnika, raqamli texnologiyalar va san'at elementlari orqali dars jarayonini samarali tashkil etish usullari tahlil qilinadi.

Shuningdek, interaktiv va tajribaviy metodlarning boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'siri, ularning muammolarni hal qilish, tanqidiy fikrlash va ijodiy yondashuv ko'nikmalarini rivojlantirishdagi roli ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari ushbu metodlarni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: STEAM ta'limi, interaktiv o'qitish, tajribaviy ta'lim, boshlang'ich sinflar, loyihaviy o'qitish, eksperimentlar, robototexnika, innovatsion pedagogika, tanqidiy tafakkur, ijodiy fikrlash, fanlararo integratsiya.

ZAMONAVIY AXBOROTLASHGAN TA'LIMDA KAHOOT DASTURIDA UYGA VAZIFALARNI TASHKIL QILISH <u>JAMOLOVA NODIRABEGIM JOBIR QIZI</u>	401
BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARINING O'QISH SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA XORIJIY TAJRIBALARIDAN FOYDALANISH <u>Nabiyeva Nigora Normuhammad qizi</u>	403
TA'LIM JARAYONIDA XALQARO TAJRIBALARNI TASHKIL ETISH IMKONIYATLARI (JISMONIY TARBIYA MISOLIDA) <u>Oripova Nazzora Maxmudovna</u>	405
PEDAGOG-FASILITATOR YORDAMIDA O'QUVCHILARNING JAMOADA SAMARALI ISHLASH VA YETAKCHILIK QOBILIYATINI NAMOYISH ETISH QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH <u>Qahhorova Marjona Ixtiyor qizi</u>	407
TIMSS XALQARO BAHOLASH DASTURI VA UNI TA'LIMDAGI O'RNI <u>Saidova Mohinur Jonpo'latovna, Sobirova Sabina San'at qizi</u>	409
WAYS OF DIFFERENTIATING TASK-BASED LEARNING FOR NON-PHILOLOGICAL STUDENTS <u>Anvarova Umidabegim Ja'farovna</u>	412
STEAM TA'LIM TEXNOLOGIYASINING ZAMONAVIY O'QUV JARAYONIDAGI AHAMIYATI <u>Shoyeva Yulduz Amin qizi, Ravshanova Orasta Akmaljonovna</u>	414
AKSIOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHILARINING HARAKAT FAOLLIGINI OSHIRISH METODIKASI <u>Hafizov Shahriyor Shavkatovich</u>	415
STEAM ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINFLARDA INTERAKTIV VA TAJRIBAVIY O'QITISH USULLARI VA UNI AMALIYOTDA QO'LLASH <u>Raxmatova Shaxnoza Olimovna</u>	417
STEAM TA'LIM TEXNOLOGIYASI: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY AHAMIYATI <u>Salixova Lobar Farxodovna</u>	419
XALQARO TAJRIBA ASOSIDA KOLLABORATIV TA'LIM MODELINING BOSHLANG'ICH TA'LIMGA INTEGRATSIYASI <u>Temirova Iqbol Sadriddinovna</u>	421